

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Shokirova Amaliy ishlatiladigan yakka insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash.....	734
G.N.Shokirova Aralashma insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash samaradorligini aniqlash	738
M.A.Abdurahimova O'zbekiston hududida o'suvchi dorivor o'simliklarni dorivorlik xususiyatini o'rgatish orqali talabalarning tibbiy savodxonligini rivojlantirish.....	742
B.K.Boboyev, O.K.Usmonov, S.Sh.Kabilov, M.B.Xoliqov, M.B.Maxammadaliyev Innovatsion texnologiyalar asosida chorvachilik sohasini rivojlantirish.....	745
U.B.Mirzayev, X.A.Abduxakimova Farg'ona vodiysi bo'z va cho'l mintaqasi tuproqlarining unumdorligi.....	749
G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova O'simliklarni oziqlanishi va o'g'it fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	754
D.Sh.Sultonov O'zbekiston po'stloqxo'r qo'ng'izlarining taksonomik ro'yxati.....	757

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, N.A.Fattoxov Factors of pollution of the geoecological condition of agglomerations (on the example of Fergana-Margilan agglomeration)	762
O.I.Abduganiev, Kh.Abdullaeva Agrotourism as a factor of sustainable rural development.....	765
I.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov Transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning ekologik-geografik asoslari.....	770
R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova Ulkan to'g'onlar geografiyasi va ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar.....	778
R.Y.Xolikov, I.Y.Zikirov Farg'ona vodiysi reliefini qiyalik darajasi va uni GIS dasturlari yordamida kartalashtirish	783
A.A.Xamidov O'zbekistonda zoogeografik tadqiqotlarning rivojlanishi	788
R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova O'rta Osiyodagi to'g'onli ko'llarning genetik turlari va ularni tasniflash masalalari	793
N.O'.Komilova Ijtimoiy-geografik yondashuv asosida etnoekologik madaniyatni o'rganish masalasi.....	798
J.J.Mamatisakov O'quvchilarni geolog kasbiga qiziqtirishda maktab geografiya ta'limining o'rni	803
D.B.Kosimov, Z.I.Mamirova, Sh.S.Sobirova Ekologik-xo'jalik holatni baholash asosida yerdan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirish	807
L.M.Saydaliyeva Sakral landshaftlarni xosil bo'lishining tabiiy - tarixiy jihatlari	813
A.E.Madraximov Joy Relyefi va uning o'zgarishi haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar.....	819

EKOLOGIYA

M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva Qishloq xo'jaligida yerni boyitishda don dukkakli o'simliklarning ro'li	822
S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov Analysis of macro and micro elements in the biologically active supplement "AS-OROM"	827
M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva Sansevieriya (Sansevieria) o'simligining ayrim bioekologik xususiyatlari va uni yetishtirish texnologiyasi	831



UO'K: 81'.373.21

JOY RELYEFI VA UNING O'ZGARISHI HAQIDA MA'LUMOT BERUVCHI GEOGRAFIK NOMLAR**ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАЗВАНИЯ, ДАЮЩИЕ ИНФОРМАЦИЮ О РЕЛЬЕФЕ И ЕГО ИЗМЕНЕНИЯХ****GEOGRAPHICAL NAMES THAT PROVIDE INFORMATION ABOUT THE RELIEF AND ITS CHANGES****Madraximov Ablazbek Erkinjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti, geografiya kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimiz hududidagi geografik nomlar orasida nisbatan kam o'zgargan joyning relyef shaklini ifodalovchi oronimlar tadqiq etilgan. Shuningdek mamlakatimiz toponimlar tarkibida relyefni anglatuvchi geografik terminlar o'rganilgan, statistik ma'lumotlar asosida ularni salmog'i aniqlangan va taxlil etilgan.

Аннотация

В данной статье среди географических названий на территории нашей страны изучаются оронимы, представляющие форму рельефа места, которые сравнительно мало изменились. Также были изучены географические термины, означающие рельеф в топонимах нашей страны, определен и проанализирован их вес на основе статистических данных.

Abstract

In this article, among the geographical names in the territory of our country, the oronims representing the relief form of the place, which have changed relatively little, are studied. Geographical terms meaning relief in toponyms of our country were also studied, their weight was determined and analyzed based on statistical data.

Kalit so'zlar: Oronimlar, oronimiya, oykonimlar, geografik atamalar, tabiiy-geografik jarayonlar, geografik nom, geografik termin

Ключевые слова: Оронимы, оронимия, ойконимы, географические термины, естественно-географические процессы, географическое название, географический термин

Key words: Oronyms, oronymy, oikonims, geographical terms, natural-geographical processes, geographical name, geographical term.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda geografik nomlarni o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda geografik joy nomlarini shakllanishiga asos bo'lgan tabiiy geografik xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilish, geografik nomlarni muhofaza qilish bo'yicha bir qator davlat miqyosidagi qonun va qarorlar qabul qilindi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-noyabrda "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonuni qabul qilindi [1]. Mazkur qonun O'zbekistondagi geografik nomlarni normallashtirish, standartlashtirish (qat'iylashtirish), geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish, geografik nomlarning davlat reyestrini tuzish, nomlardan foydalanish, to'g'ri yozish va, nihoyat, geografik nomlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun asosiy meyoriy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston yer yuzasining 78,7 foiz qismi tekisliklardan 21,3 foizi esa adir-tog' qismlardan iborat. Mamlakatimiz hududidagi tekisliklar Turon (shimoli-g'arbda) tekisligining bir qismi hisoblanadi. Amudaryo va Siradyo oralig'ida esa Qizilqum cho'li joylashgan. Shuningdek mazkur cho'lda bir qancha pastak tog'lar: Bo'kantov, Tomditov undan janubda Muruntov, janubi-g'arbda esa Quljuqtov kabi tog'lar mavjud. Qizilqumda berk botiqlar va soyliklar ham uchraydi.

O'zbekiston hududidagi tog'lar Tyanshan va Hisor – Oloy tog' tizmalariga kiradi. Barcha tog' tizmalarini pasttekisliklar, soylar, daryo vodiylari ajratib turadi. Bundan tashqari tekisliklarda ko'plab adirlar, jarliklar va tepaliklar bor.

Geografik joy nomlari orasida oronimlar muhim o'rin egallaydi. Joy relyefining tuzilishi, sathi bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar geomorfologik yoki oronimlar deb ataladi. Oronim so'zi yunoncha "oros" – tog', "onoma" – ism, nom so'zlaridan olingan. Ma'lum bir hududning oronimlar yig'indisi shu joyning oronimiyasini tashkil qiladi.

Oronimlarga tog', adir, qir, dovon va tepaliklardan tortib relyefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, shuningdek, tekislik, pasttekisliklar va qumliklar ham kiradi. Ana shu jihatlarini xisobga olsak mamlakatimiz toponimiyasida oronimlar salmoqli o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bizga ma'lumki yer yuzasida – relyefga bog'liq nomlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Xususan H.Xasanov ayrim oronimlar to'g'risida quydagi fikrlarni aytib o'tgan: Islandiya ("Muz o'lkasi"), Shpitsbergen ("Nayza tog'"), Monblan ("Oq tog'"), O'rta Osiyodagi Qumtepa, Ko'chkak, Kungay Olatov, Yo'g'ontepa, Egartosh, Belisniq tizmasi va hokazo [7].

Ma'lum vaqt o'tishi bilan yer yuzidagi sodir bo'ladigan tabiiy-geografik jarayonlar natijasida relyef shakllari o'zgarishi mumkin, lekin o'sha relyefni ifoda etuvchi geografik nom saqlanib qoladi [2]. Xususan nurash natijasida hosil bo'lgan geomorfologik shakllar – Odamtosh, Beshiktosh, Cho'qqitosh deb, chuqur, tor daralar – Zindonsoy, O'radaryo deb atalgan. Ba'zi joylarda "Temir darvoza" deb ataladigan yo'laklar bor. Tog' orasidagi torgina o'tkir, dara yoki daryoning qisq joyi shunday ataladi [7].

Oronimlar leksikasida geografik atamalar kata o'rin tutadi albatta. S.Qorayevning yozishicha (2006) oronimlar tarkibida adir, gaza, dara, dovon, jaylov-yaylov, jar, kam-kamchik, kamar, ko'l, ko'tal, nov, nova, nura, oshuv, sang, soy, suv, tangi, tepa, tov-tog', tosh, chag'at, cho'qqi, qir, qiya, qo'l-g'o'l (tog' tarmog'i, kichikroq dara, soy ma'nosida), qashqa, qo'rum, qo'rg'on, qo'ton, ungur kabi atamalar ko'p uchraydi. Mamlakatimizda oronimlarga boyligi jihatidan Surxondaryo viloyati (150 ga yaqin oronim) birinchi o'rinda turadi (mashhur Hiyor tizmasiva uning tarmoqlari Boysuntog', Ko'hitang, Bobotog'), ohirgi o'rinlarda Xorazm va Sirdaryo viloyatlari egallaydi [5]. Bizning tadqiqotlarimiz xam buni tasdiqlamoqda. Xususan Surxondaryo viloyatining Boysun, Oltinsoy, Qumqo'rg'on, Uzun, Sariosiyo, Sherobod kabi tumanlarida tog' temini orqali ifoda etilgan ko'cha va mahalla nomlarini ko'plab uchratishimiz mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mamlakatimiz aholi maskanlari orasida relyef shaklini anglatuvchi tepa so'zi qatnashgan geografik nomlarni juda ko'plab uchratishimiz mumkin. Tepa – tabiiy geografik termin bo'lib, "balandlik", "do'nglik", "tepalik" degan ma'nolarni beradi [6]. E.M.Murzayevning ta'kidlashicha, ushbu termin turli fonetik shakllarda Qozog'istonda, Kavkazda, Volga bo'yida, Ural tog'i atroflarida, O'rta Osiyoda, Sibirda, Yaqin Sharqda, Bolqon yarimorolida ko'plab toponimlar hosil qilgan [4]. M.T.Mirakmalov ushbu termindni "tepalik", "do'nglik", "balandlik" deb izohlaydi [3]. Mamlakatimizda ushbu termin ko'cha, mahalla, ovul, shaharcha, ziyoratgoh, do'nglik, tepalik, dovon, qo'rg'on, qabrison, urochishe, ariq, buloq, quduq, soy, suv ombori, foydali qazilma konlari kabi oykonimlar tarkibida 621 marta takrorlanadi. Mamlakatimiz hududida eng ko'p takrorlanuvchi tepa termini bilan bog'liq geografik nomlar quyidagilar: Ko'ktepa, Mingtepa, Munchoqtepa, Nurtepa, Oqtepa, Qo'rg'ontepa, Qo'shtepa, Qoratepa, Qumtepa, Jartepa, Sartepa, Toshtepa, Uchtepa, Yalpoqtepa, Shoshtepa kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimizning oronimlarini shakllanishida eng ko'p qo'llaniladigan terminlardan yana biri tog' termini hisoblanadi. S.Qorayevning ta'kidlashicha tog' termini turkiy xalqlar yashaydigan hududlarning g'arbiy qismlarida (Afg'oniston, Qrim, Kavkaz, Ozarbayjon, Turkmaniston) "dog'"(dag), Qozog'istonda "tau", Qirg'izistonda "to'o'", Sibirda "tuu", "tuu", "tia" va O'zbekistonda "tog'" (tov) shakllarida talaffuz qilinadi [5]. Shuningdek ushbu termin orqali yurtimizdagi ko'cha, mahalla, dovon, qabrison, urochishe, soy, tog' tizmalari kabi oykonimlar tarkibida 108 marta takrorlanadi. Bunday nomlarga Aylanatog', Bobotog', Havotog', Qirtishtog', Qiziltog', Oqtog', Qo'ng'irtog', Qoratorov, Tog'lik, Tog'terak Yetimtog' kabi geografik obyektlarni misol qilishimiz mumkin. Ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent kabi viloyatlarning geografik nomlari

GEOGRAFIYA

tarkibida qolgan viloyatlarimizga nisbatan relyef bilan bog'liq toponimlarni ko'p ekanligini bizning o'rganishlarimiz ko'rsatdi.

Yuqorida keltirib o'tilgan geografik terminlarga qo'shimcha sifatida yurtimizda salbiy tabiiy-geografik jarayonni ifoda etuvchi jar termini ham mamlakatimiz oronimlari tarkibida ko'plab uchratishimiz mumkin. Jar – “chuqur soylik”, “chuqurlik” ma'noni anglatadi [6]. Mamlakatimizda ushbu termin orqali ko'cha, mahalla, shaharcha, qabriston, urochishe, ariq, kanal, kollektor, soy, buloq kabi oykonimlar tarkibida 82 marta takrorlanganini ko'rishimiz mumkin. Jar termini asosida Jartepa, Jarbuloq, Jarboshi, Jarqirg'iz, Echkijar, Tagijar, Yomojar kabi bir qancha oronimlarni misol sifatida aytish mumkin. Ushbu geografik termin asosan Andijon, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyati kabi geografik nomlari orasida ko'p ekanligi bizning tadqiqotlarimiz natijasi ko'rsatdi. Shuningdek Xorazm vohasi hududlarida “Arna” yoki “Anna” termini – jarlik, katta ariq, kanal ma'nolarida keladi. Yuqoridagi termin asosida Arnabo'yi, Arnaovul, Yumaloqarna, Xonqaarna kabi oykonimlar vujudga kelgan.

Mamlakatimiz hududida oronimlarni shakllantirishda chuqur, do'ng kabi ekzogen rekyef shakllari ham bir qancha joy nomlarida takrorlanishini ko'ramiz. Xususan, chuqur termini ishtirok etgan joy nomlari 43 marta takrorlangan, do'ng termini orqali yurtimizdagi geografik obyektlarning nomi 25 marta takrorlanadi. Ushbu termin asosan Andijon, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari toponimlari orasida salmoqli ekanligini ko'rish mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning geografik nomlari orasida joyning relyef shaklini anglatuvchi oronimlar salmoqli o'rin egallaydi. O'rganishlar natijasida yurtimiz hududida 800 dan ortiq orografik obyektlar mavjudligi aniqlandi. Mazkur obyektlarning aksariyati tepa, tog', jar, chuqur, do'ng kabi terminlar asosida shakllangan bo'lib, mazkur geografik nomlar orqali ma'lum bir hududdagi relyef shakllarini o'tmishi va hozirgi holati to'g'risida darak, xabar olish imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 2 ноябрдаги “Географик обейктларнинг номлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги Қонуни. № ЎРҚ-799-сон
2. Аҳмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик. Фарғона, “Полиграф Сервис”, 2018. – 118 б.
3. Миракмалов М.Т. Халқ табиий географик терминлари.– Т.: «Fan va texnologiya» нашриёти, 2009.
4. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов,-М.: Мысль, 1984.653 с.
5. Қораев С. Топонимика. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашрети, 2006. –320 б. –320 б.
6. Қораев С. Ўзбекистон топонимларини ҳосил қиладиган асосий терминлар ва бошқа сўзлар луғати. –Т.: 2001. –176 б.
7. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири: Илмий – оммабоп таъриф. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 120 б.